HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ORGANIZATION AND CONDUCT OF TRAINING THROUGH INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

Arzimuradov Aziz Mashrabovich
Senior Lecturer, Institute of Ground Forces, Military Security and Defense University

HARBIY TA'LIM MUASSASALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI MASHG'ULOTLARNI TASHKILLASHTIRISH VA OLIB BORISH.

Arzimuradov Aziz Mashrabovich
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar instituti
katta o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolamda harbiy ta'lim muassasalarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali mashg'ulotlarni tashkillashtirish va olib borilishi yoritilgan.
Kalit so'zlar: Axborot, kommunikatsiya, texnologiya, taqdimot, resurs, imitatsiya.
Аннотация: В данной статье освещаются вопросы организации и проведения занятий в военных образовательных учреждениях с использованием информационно-коммуникационных технологий.
Ключевые слова: информация, коммуникация, технология, презентация, ресурс, имитация.
Abstract: This article highlights the organization and conduct of training sessions in military educational institutions through the use of information and communication technologies.
Keywords: information, communication, technology, presentation, resource, simulation.

Bugungi kunda har tomonlama rivojlanayotgan jamiyat taraqqiyotini axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Jahonda axborot-komunikatsiya texnologiyalar tizimlari kun sayin rivojlanmoqda. Mamlakatimizda sohani yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan bir qator Mudofaa vazirligi tomonidan buyruqlari qabul qilingan. Ushbu siyosatning ijobiy natijalari bugungi kunda mudofaa vazirligi qo'shinlarida hamda harbiy ta'lim muassasalarda o'z ifodasini topmoqda.

axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimediya taqdimotlaridan foydalanish borasidagi chet el tajribasini chuqur har tomonlama o'rganib chiqish hamda ta'lim jarayonida qo'llanilishi alohida e'tiborga olingan.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali harbiy fanlarni chuqur o'rgatishda ma'lumotlarni qabul qilish, va amaliy bajarishda shunigdek mustaqil ishlashi yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslar vaqti o'tdi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari oqimi sur'ati tezlashgan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, kursant e'tiborini bilimga jalb etish mushkul. Buning uchun o'qituvchi tinmay izlanishi, ijodkor bo'lmog'i darkor.

Bunday holda, ayniqsa darsni o'yinlar asosida ko'rish tizimiga asoslanib o'tish sezilarli samara beradi. O'yinlar esa kursant psixologiyasidan kelib chiqib, tanlangani ma'qul. Kursantlarni bilim olishida birinchi bo'lishga undash uslubi doimo o'zini oqlaydi. Chunki kursantlar hamisha o'zini

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ko‘rsatgisi, tengdoshlaridan bir qadam oldinda yurgisi keladi. Darslarda ham yangi ma’lumotlarni yetkazishdan avval o‘qituvchi ularning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko‘rgazmali vositalar, slaydlar, multimediya, tarqatma materiallar, qo‘shimcha adabiyotlar bilan mustaxkamlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mashg‘ulotda olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining asosiy elementlaridan biri, kursantlarning o‘zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash o‘quv va amaliy topshiriqlarini bajarishlari, xayotda albatta yetuklikka yetaklaydi [1].

Ta’lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar haqida gap ketganda, ta’lim berish jarayonini ezgulik kuprigiga o‘xshatamiz, bu kuprikdan kursantlarimizni bilimli, dunyokarashi keng kilib olib o‘tish ustozni, ya’ni o‘qituvchilarni vazifasi deb bilamiz.

Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta’lim xarakteriga ega bo‘lib, kursantlar bilimining mustaxkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi.

Darslarning nazariy va amaliy qismida kursantlarning qiziqishini oshirish uchun pedagogik texnologiyaning samarali usullaridan foydalanib, kichik guruhlarga bo‘lingan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

O‘quv jarayonida kursantlarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarnining qo‘llanilishi kursantlarni mustaqil, erking fikrlashiga, izlanishga, har bir amaliy vazifani bajarishga ijodiy yondashish, ma’suliyatini his qilish, mutaxassisligi bo‘yicha o‘z ustida ishlash tinmay mexnat qilish va yaratish ishlarini olib yuborish, taxlil qilish ilmiy adabiyotlarodan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘z tanlangan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini, shunigdek pedagogga nisbatdan hurmatini kuchaytiradi [2].

Mashg‘ulotlarni olib borish jarayonini kuzatib borish va kerakli ma’lumotlar berish kichik guruhlarda darslarni samarali o‘tilishiga yordam beradi.

Mashg‘ulotni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali samarali tashkillashtirilishi kursantlarda o‘z kasbini sevishga shunuing mutaxassisligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Buning uchun faqat o‘qish, o‘rganish kerakligi xaqida maslahat beradi. Bunda malakali pedagoglar ustozlar va mutaxasisilar bilan uchrashuvlar, baxs-munozaralar tashkil etish ham kursantlarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi. Bo‘linma komandirlari o‘z qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilarini yuksak ma’naviyatli, bilimli, komil inson yetib voyaga yetkazish istagini yanada kuchaytirish zarur.

Bunday vazifalarni amalga oshirishda interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalar juda qo‘l kelishini harbiy ta’lim muassasalarda tadqiqotchilar tomonidan o‘tkazilayotgan pedagogik tarjibalar natijalari tasdiqlamoqda Shuning uchun ham harbiy ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituchilar o‘z sohalari bo‘yicha olib borayotgan mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalarni o‘z o‘rnida qo‘llashini bilishlari o‘ta zarur buning uchun guruh kichik guruhchalarga bo‘linadi va kursantlarga savolini aytadi. Darsda o‘tirgan kursantlar javob beradilar. To‘g‘ri javob uchun baholanadi va semestr davomida guruh baholari hisoblanib boriladi va semestr ohirida eng faol guruh aniqlanadi [3].

Bu usul kursantlarni izlanishga, no‘tqini ravon bo‘lishiga, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishga undaydi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o‘qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o‘rgatish, kursantlarni katta hajmdagi ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishlashiga undaydi. Ta’lim

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

muassasasida o‘qishga kelgan ko‘p kursantlar mustaqil fikrlash va ishlash bo‘yicha yetarlicha ko‘nikmaga ega emas. Ayrimlari bilim olishga qiziqishlari juda past.

Qobiliyatli, izlanuvchan hamda ijodkorlikka ishtiyoqi bor kursantlarimizni o‘zi qiziqqan sohaga (mutaxassislik) yunalishida chuqurlashtirilgan saboq olishi, ularni kelajakda albatta yuksak malakali mutaxassis bo‘lib yetishshishlarida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi [4].

Mashg‘ulotlarni tashkillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali quydagilarga erishiladi.

- amaliy va guruh mashg‘ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyati;

- tavsiya qilingan o‘quv materiallaridan ommaviy tarzda foydalanish, ya’ni tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

- o‘quv materiallari ma’lumotlar ba’zasini tezkor ravishda o‘zgartirib, yangi axborot zahiralarini kiritish imkoniyatining mavjudligi;

- amaliy va guruhiy mashg‘ulotlari mobaynida ma’ruza materiallariga o‘tish imkoniyatining yaratilishi;

- masofadan o‘qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish imkoniyati;

- ta’lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqalar. Darslarning nazariy va amaliy qismida kursantlarning qiziqishini oshirish uchun pedagogik texnologiyaning samarali usullaridan foydalanib, kichik guruhlarga bo‘lingan holda olib boriladi. Mashg‘ulotlarni olib borish jarayonini ko‘zatib borish va kerakli maslahatlar berish kichik guruhlarda darslarni samarali o‘tilishiga yordam beradi.

Bunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quv materiallarini o‘quv jarayoniga tadbiq etish, bir vaqtning o‘zida ta’lim oluvchilarga o‘quv materiallarini kurish, o‘qish, eshitish, mulohaza qilish va qayta-qayta takrorlab o‘z bilimlarini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llanilishi, ayniqsa multimediali vositalardan foydalanish o‘quv jarayoninig didaktiv ko‘rinishda tasvirlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishda orqali elektron darsliklarning alohida o‘rni mavjud. Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga muljallangan elektron o‘quv adabiyoti hisoblanadi.

Ta’lim tizimida o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilsa ta’lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- maqsadga yunaltirilganlik;
- o‘quvchilarning motivasiyasini kuchaytirish;
- ta’lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
-o‘quvchilarning o‘quv-amaliy darajasini mustaxkamlash va boshqalar.

O‘quv jarayonida mustakil ta’lim mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati juda katta hisoblanadi.

Kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o‘quv-uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot - ta’lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy o‘quv manbalari elektron o‘quv darsliklarini keng qo‘llash, ularning ma’lum ma’noda kutubxonalarini tashkil etish, ta’limning masofadan o‘qitish usullarini amalda joriy etishdan iborat [5].

Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari uchun yaratilgan elektron o‘quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlashtirilgan o‘quv-uslubiy materiallar ta’lim oluvchilarga kerakli mavzular buyicha ma’lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat kiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga karab ta’lim oluvchilarga turli saviyadagi topshiriklar tavsiya qilinadi.

O‘quv jarayonida masofali o‘qitish tizimini tashkil qilishning asosiy talablaridan biri o‘quv materiallarini kursantlarga taqdim etish vositalari hisoblanadi. Bunda masofali o‘qitish tizimining asosini tashkil etuvchi o‘quv materiallarining elektron versiyalarini yaratishga bir qator talablar quyiladi.

O‘quv materiallarini elektron kurinishda taqdim etganda uning kursantlar tomonidan tushunish darajasiga alohida e’tibor berish kerak. Elektron shaklda taqdim etilayotgan materiallar ta’lim oluvchilar uchun qulay va yaxshi o‘zlashtira oladigan bo‘lishi kerak. Tavsiya etilayotgan o‘quv materiallarida kerakli ta’riflar, tayanch iboralar, kalit so‘zlarga murojaat qilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratilishi kerak.

Fanlardan amaliy va guruhiy ishlarini virtual stendlar ko‘rinishida imitatsiya qilish orqali tashkil qilish masofali o‘qitish tizimida quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi:

- virtual stendlar uchun maxsus jihozlangan xonalar talab qilinmasligi;
- guruhiy ishlarini animatsiyalar bilan ta’minlanish va obyektlar ustida olib borilayotgan jarayonlarni tug‘ridan-tug‘ri namoyish qilish;
- yaratilgan virtual stendlardan kup marotaba foydalanish.

Fanlardan amaliy va guruhiy ishlarini virtual stend tarzida tashkil qilish masofali o‘qitish tizimida juda katta ahamiyatga ega. Masofali o‘qitish tizimini tashkil qilish natijasida kurgazmali o‘quv materiallaridan ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni uchun kerakli o‘quv jihozlari yetarli bo‘lmagan holda ham ta’lim oluvchilar amaliy va guruhiy ishlarini bajarish imkoniyati yaratiladi.

Elektron o‘quv materiallarini yaratish, ulardan qulay va samarali foydalanish uchun elektron o‘quv materiallari pdf formatiga o‘tkaziladi.

Bu formatda tayyorlangan materiallardan foydalanishning afzalliklari quydagilardan iborat:

- ma’lumotlar xotiradan kam joy egallaydi;
-ma’lumotlar himoyalangan bo‘ladi (o‘zgartirishlar, viruslar ta’siridan xoli qilish va boshqalar);
- ma’lumotlarni qidirish va chop etishni tezlashtirish;
-ma’lumotlarni ifodalovchi yuqori sifatli shriftlarning mavjudligi;
- ixcham tasvirli ma’lumotlarni yaratish;
- ma’lumotlarning zarur saxifalariga tez o‘tishni ta’minlash va boshqalar.

Bu kabi kursatkichlar masofali o‘qitish jarayonida foydalaniladigan o‘quv materiallarining asosiy talablarini tashkil qiladi.

Хулоса

Xulosa qilib aytganda, harbiy ta’lim soxasida pedagogik va axborot– kommunikatsiya texnologiyalardan, internet axborot ta’lim resurslaridan hamda konferensiya usulidan foydalanish kursantlarning olayotgan bilimlarni yuqori saviyada bo‘lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo‘lib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

O‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

-o‘quv jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish;

- ta’lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;

-dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;

-olingan bilimlar kishi xotirasida o‘zoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo‘llash mumkinligi.

-kursantlarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;

-mashg‘ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;

-kursantlar kuzatishi, mushoxada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining xosil bo‘lishi va boshqalar.

Foydalanilga adabiyotlar

1.Ishmuhamedov R. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.2013 y.

2.Begimkulov U.SH. Zamonaviy axborot texnologiyalari muxitida pedagogik ta‘limni tashkil etish // "Pedagogik ta‘lim" jur, №1, 2004

3.Taylakov N.I. Ta‘lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istikbollari // Ta‘lim va tarbiya –T, 2001.

4.Karimov I.. Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch.- Toshkent: Ma‘nviyat, 2008.

5.Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‗llari.- T.:Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 2008 (qayta nashr).